

**BO‘LAJAK MUHANDISLARNING ISHLAB CHIQUARISH-TEXNOLOGIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-
SHAROITLARI**

Qodirov Mansur Erkinovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo‘lim “Tabiiy va aniq
fanlarda masofaviy ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada muallif oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanish usullarini o‘rganish, xususan, pedagogik shart-sharoitlarga oid bilimlarini yanada ruvojlantirish hamda ularning imkoniyatlari tobora dolzarb bo‘lganligi sababli o‘rganib tahlil qilingan ma‘lumotlarni keltirgan.

Tayanch so‘zlar: pedagogik, loyiha, ishlab chiqarish, texnik, kasbiy, ko‘nikma.

Аннотация:

В статье автором изучены и проанализированы методы профессионального развития личности в процессе подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности в высших учебных заведениях, в частности, дальнейшее развитие их знаний о педагогических условиях и предоставляемых ими возможностях. информация.

Ключевые слова: педагогический, проектный, производственный, технический, профессиональный, навыки.

Abstract:

In the article, the author studied and analyzed the methods of professional development of a person in the process of preparing future teachers for professional activities in higher education institutions, in particular, further developing their knowledge of pedagogical conditions and their opportunities are increasingly relevant. provided the information.

Key words: pedagogical, project, production, technical, professional, skills

Oliy ta‘lim muassaslarida zamonaviy ta‘limni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar zarur. Shu sababdan ham O‘qituvchining loyihalash faoliyatini ko‘rib chiqishda, biz talaba nafaqat sub‘ektiv yangi (ular uchun yangi bo‘lgan kognitiv topshiriqlarni), balki ob‘ektiv ravishda yangi, ammo hali noma‘lum bo‘lgan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati bilan

ajralib turadiganligidan kelib chiqdiki. Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchining loyihalash faoliyatining o'ziga xos xususiyati kognitiv, ijodiy topshiriqlar tizimini loyihalash hisoblanadi. Shuning uchun o'quv predmeti mazmunini loyihalashda o'qituvchi talabalarni ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy- tadqiqotchilik, rasionalizatorlik, loyihalash va ixtirochilik faoliyatiga jalb qilishni ta'minlashi kerak..

Shunday ekan ta'lim jarayoni mazmunini samarali loyihalash o'qituvchining ichki va tashqi tuzilishga ega bo'lgan murakkab bir butun sifatida pedagog bilim sifatining ob'ektiv tabiati bilan bog'liq. Bilimning ichki tuzilishi sifatleri bo'lib to'liqlik, onglik va mustahkamlik hisoblanadi. Bilimning tashqi tuzilishi chuqurlilik, tizimlilik va xaqqlniylikni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonini loyihalashda muhim jihat shundan iboratki, o'qituvchi mazmuni loyihalagandan so'ng, o'quv materialni o'rganish qonuniyatlariga mo'ljal ola bilishi va mazmunni taqdim etishning turli usullarini o'zlashtirishi kerak.

Pedagogik loyihalash bosqichlari ketma-ketligini hisobga olgan holda (maqsadni belgilash, bashorat qilish, rejalashtirish, konstruksiyalash), biz talabalarda ishlab chiqarish- texnologik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarini taqdim etamiz:

- talabalar ishlab chiqarish- texnologik faoliyatining maqsadlarini aniqlash;
- kognitiv masalalarni aniqlashtirish;
- ishlab chiqarish- texnologik faoliyatga tayyor bo'yicha o'z-o'zini baholash;
- muammolarni hal qilishga olib keladigan mos harakat usulini tanlash;
- ishlab chiqarish- texnologik faoliyatni loyihalash;
- ishlab chiqarish- texnologik faoliyatnibajarish dasturini amalga oshirish;
- ish natijalarini nazorat qilish;
- nazorat natijalari asosida tahrirlash ishlarini bajarish;
- xatolar va ularning sabablarini bartaraf etish.

Yuqorida keltirilganlar talabalarining ishlab chiqarish-texnologik faoliyatini rivojlantirish uchun ixtisoslik fanlar mazmunini loyihalash mantiqini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilarning aqliy faoliyatini shakllantirish nazariyasiga ko'ra, talabalar tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish ko'p bosqichli va kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlarni qo'llash orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Ixtisoslik fanlarning mazmunli jihati, shuningdek, ishlab chiqarish - texnologik faoliyatning tuzilishi quyidagi bosqichlarni ajratish imkonini berdi: axborotdi, prosesual-o'rgatuvchi, faoliyatli. Gap shundaki, inson darhol professional (kompetentli), ob'ektiv faoliyatning to'lia huquqli sub'ektiga aylanmaydi. U eng avvalo, umumiy insoniy tajribalar majmuasi ko'rinishida, ijtimoiy jihatdan, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda taqdim etilgan harakat usullari va vositalarini o'zlashtirishi kerak. Demak, shaxsning individual ob'ektiv faoliyatning

sub'ekt sifatida shakllanishi u tomonidan individual bo'lmagan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq.

Ya'ni, dastlab harakat qonuniyatlarini tashqi tomondan aqliy faoliyatning ichki tekisligiga o'tkazish orqali boshqa odamlarga tegishli bo'lgan harakat usullarini o'zlashtirish. Bu nazariyaga ko'ra, harakatni turli xil usullar bilan o'zlashtirish psixik faoliyatni umumlashtirishga olib keladi, bu orqali predmetli harakatlar va faoliyat tartibga solinadi. Inson qobiliyatlari - bu shaxsda mustahkamlangan umumlashtirilgan psixik faoliyat tizimi. Ishlab chiqarish - texnologik qobiliyatlarning shakllanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, turli xil harakat usullarini o'zlashtirish darajasi va faoliyatining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shaxs shakllanishining psixologik jihatlarini o'rganib, biz shaxsiyatni shakllantirish uning yo'nalishini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi degan xulosaga keldik. Shunday qilib, shaxsning shakllanishi jarayonida uning yaxlitligi ham sodir bo'ladi.

Talabalarining ishlab chiqarish- texnologik kompetentligini rivojlantirishda biz ta'lim oluvchilarning aqliy faoliyatini shakllantirish nazariyasining asosiy qoidalariga tayandik. Ularning mohiyati shundan iboratki, har bir shaxs o'zining qobiliyati, qiziqishi, xususiyati bilan ajralib turadi va shu asosda ularning har biri bir qator kasblarga mos keladi. Shaxsning vaqti va tajribasiga qarab, kasbiy shakllanishning ob'ektiv va sub'ektiv shartlari o'zgaradi va ma'lumki, kasbiy shakllanish bir qator ketma-ket bosqichlarga ega. Kasbiy shakllanish xususiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shaxsning xususiyatlari, uning kasbiy qobiliyatlari va boshqalar bilan belgilanadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi ko'p bosqichli va kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlarni qo'llash orqali talabalarining ishlab chiqarish- texnologik kompetentligini rivojlantirishni tashkil etishni uch bosqichdan iborat jarayon sifatida ko'rsatishga imkon berdi:

Bu talabalarining ilmiy tushunchalar, maxsus atamalar, ta'riflar va formulalarni o'zlashtirishlarini ko'zda tutadi. Bu ishlab chiqarish jarayonlarining barcha ishtirokchilari (konstruktorlar, texnologlar, metrologlar, operatorlar va boshqalar) tomonidan vaziyatni aniq talqin qilish uchun zarurdir. Ushbu bosqich quyidagilar bilan bog'liq: kerakli ma'lumotlarni aniqlash muammolarini hal qilish; muammoni shakllantirishga aniqlik kiritish; qarama-qarshiliklarni o'rnatish.

Prosessual-o'rgatuvchi. Fanning boshqa sohalaridan (fanlararo aloqalar) bilimlarni jalb qilgan holda muhandisning ishlab chiqarish- texnologik faoliyatiga yo'naltirilgan muammolarni hal qilish mantiqini o'z ichiga oladi. Bu bosqich bilim va muammolarni hal qilish qobiliyatining o'zaro mosligi bilan bog'liq. Muhandisning ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirilgan mantiqiy- qidiruv xarakteridagi topshiriqlari qo'llaniladi.

Ko'nikma va malakalar yangi muammolarni hal qilishda, turli xil variantlar va yondashuvlardan foydalangan holda, ilgari ma'lum bo'lgan faoliyat usullariga asoslangan holda rivojlantiriladi.

Faoliyatli bosqich. Bu bosqicho'z navbatida, quyidagi ikkita kichik bosqichlarga bo'lingan.

A) Evristik - ishlab chiqarishning turli tomonlarini va texnologik muammolarni mustaqil ishlash orqali izlanish yo'li bilan o'rganish. Ushbu kichik bosqich gipoteza qo'yish va yechim yo'llarini topish qobiliyati bilan bog'liq. Kognitiv-qidiruv xarakterdagi muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

B) Muammoli - ilmiy bilish elementlari bilan ishlab chiqarish - texnologik muammolarni hal qilish. U hal qilish tamoyillari va berilgan muammoning shartlarini o'zaro bog'lash, ya'ni ishlab chiqarish muammolari va vaziyatlarni hal qilish uchun bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'limning Texnik tafakkurni tavsiflab uning eng muhim xususiyatini ta'kidlash kerak, bu esa faoliyatning nazariy va amaliy tarkibiy qismlarining uzviy birligida, aqliy (fikrlash) va amaliy harakatlarning uzluksiz uyg'unligi va o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan eng muhim xususiyatlarini qayd etish mumkin. Texnik masalalarni hal qilishning yana bir muhim xususiyati faoliyatning tushunchali va obrazli komponentlari o'zaro chambarchas bog'liqligida namoyon bo'ladi. Tasavvur, obraz, fikrlashning teng huquqli tarkibiy qismlari bo'lib, ulardan foydalanmasdan topshiriqni bajarish mumkin emas.

Ushbu maqolada talabalarining o'quv jarayonida kasbiy kompetentliklari quyidagilari namoyon bo'ladi deb hisoblaymiz:

- kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasida;
- kasbiy ko'nikmalarni egallash darajasida;
- kasbga va mehnat natijalariga, kasbiy faoliyat motivlariga nisbatan munosabatda ifodalanadigan shaxsiyat yo'nalishlarida.

Talabalarining ishlab chiqarish- texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari quyidagi ko'rsatkichlari aniqlandi: bilimlarni shakllanganligi (mezonlar bo'lib chuqurlik, hajm, vinglanganlik, tizimlilik, aniqlik, yaxlitlik, mustahkamlik hisoblanadi); amaliy ko'nikmalar va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalar shakllanganligi (mezon bo'lib bajarilgan harakatlarning to'liqligi, harakatlar ketma-ketligi, harakatlarning anglanganligi, mustaqillik, ijodiy yondashuvlar hisoblanadi); shaxsiy fazilatlarining shakllanganligi.

Adabiyotlar

1. Qodirov M. E. Ishlab chiqarish-texnologik kompetentlik tushunchasi va uning mazmun mohiyati // “So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi” ilmiy-uslubiy jurnali. 13-Noyabr, 2023-yil 6-jild 11-son
2. Qodirov M. E. Texnologiya darslarining samaradorligini oshirishda didaktik vositalarning o’rni //XXI asr ta’lim tizimida innovatsion va integratsion yondashuvla// Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 2022-yil. 600-612 bet.
3. Qodirov M. E. Pedagog, shaxsda ijodkorlik funksiyasini shakillantirish //Xalqaro baholashtizimi: muammo va yechimlar//Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2020-yil. 180-181 bet.
4. Qodirov M. E. Texnologiya fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda sifat va samaradorligini oshirish usullari// Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 158-161 bet.